



NUQSONLI TOVARLARNI SOTISHNING HUQUQIY OQIBATLARI.

Rasulov Bekzod Boymuratovich, Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti “Ijtimoiy va tabiiy fanlar” kafedrasida dotsenti, PhD, *E-mail:* *Lawstroy83@mail.ru*, *Tel.:* +998998468625

Omonova Sevinch Xolmo‘min qizi, Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti “Binesni boshqarish” ta‘lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi, *Tel.:* +998992021304

Rasilova Zarina G‘ulomjonovna, Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti 3-bosqich talabasi, *Tel.:* +998 94 274 04 06

Annotatsiya: Tovarlar bozorini huquqiy tartibga solish, xususan, iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish bozor iqtisodiyotining ajralmas huquqiy masalalaridan biridir.

Ushbu maqolada nuqsonli tovarlarni sotish oqibatlari, ularni almashtirish yoki tovar nuqsonini bartaraf etishning huquqiy asoslari tahlil qilindi. Nuqsonli tovarlarni almashtirish bo‘yicha tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: Oldi-sotdi shartnomasi, tovar, nuqsonli tovar, tovarni almashtirish, tovarning kafolat muddati, yaroqlilik muddati, tovar cheki, iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish.



Аннотация: Правовое регулирование товарного рынка, в частности защита прав потребителей, является одним из незаменимых правовых вопросов рыночной экономики.

В данной статье проанализированы последствия реализации некачественного товара, его замены или правовые основания устранения брака. Разработаны соответствующие предложения и рекомендации по замене бракованного товара.

Ключевые слова: Договор купли-продажи, товар, бракованный товар, замена товара, гарантийный срок товара, срок годности, получение товара, защита прав потребителя.

Abstract: Legal regulation of the goods market, in particular, protection of consumer rights, is one of the indispensable legal issues of the market economy.

This article analyzed the consequences of the sale of defective goods, their replacement or the legal grounds for eliminating the defect. Appropriate proposals and recommendations for replacement of defective goods have been developed.

Key words: Sales contract, product, defective product, product replacement, product warranty period, expiration date, product receipt, protection of consumer rights.

Kirish.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan huquqiy tartibga solish bozor mexanizmlarida hamon katta ahamiyatga ega. Bu tartibga solish bir tomondan bozor ishtirokchilari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini ta'minlashga qaratilsa, ikkinchi tomondan davlatning narx siyosati va tovarlar sifatini nazorat qilish mexanizmini o'z ichiga oladi, qolaversa, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish masalasi ham kun tartibida bo'ladi.

Huquqiy jihatdan tovarlarni sotish, xaridorning uni qabul qilib olishi bilan bog'liq jarayonlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksida, iste'mol



tovarlarini xarid qilish oqibatlari iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunchilikda, tovarlarni bozorlarga taklif qilish, realizatsiya qilish tadbirkorlik to'g'risidagi qonunchilik bilan ham tartibga solinib kelinadi. Ammo, mahalliy shart-sharoitlar qonunchilikni har doim to'g'ri va mukammal qo'llash imkoniyatini istisno etadi. Ko'p holatlarda chakana oldi-sotdi munosabatlari qonunchilikda mavjud bo'lmagan talablar asosida ro'y berishini kuzatish mumkin. Natijada iste'molchi sifatsiz tovar sotib olganda yoki tovarning nuqsoni borligi aniqlanganda huquqlarni tiklash yoki kurilgan zararni bartaraf etishida qiyinchiliklarga duch keladi.

Bu mahalliy jihatdan sotuvchi va xaridorning tanishligi, qoidalarni qo'llash zarurati yo'q deb hisoblashi hamda xaridorning huquqiy bilimi sust ekanligi natijasida ro'y beradigan muammolar hisoblanadi. Sotuvchi xaridorning o'z huquqlarini bilmasligidan unumli foydalanishga urinadi.

Aholining keng qatlami fuqarolik qonunchiligini yoki iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunchilikni bilmasligi ko'p holatlarda mahsulot xarid qilganda no'qsonli tovarlarni olishga majbur bo'lishi, mahsulot tan narxining ko'tarilib ketishi kabi moddiy va ma'naviy zararlarni keltirib chiqarmoqda.

Mavzuning muhokamasi.

Nuqsonli tovarlar va ularni sotishdan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar haqida xorij olimlari va mutaxassislar turlicha fikr bildiradi. Jumladan, rus olimasi Mariya Bolshakova "Sifati qonun, shartnoma yoki boshqa shunga o'xshash hujjatda belgilangan mezonlarga mos kelmaydigan mahsulot nuqsonli (past sifatli) mahsulotdir. Mahsulot nuqsonlari odatda kamchilikning xususiyatiga qarab muhim



va ahamiyatsiz bo'linadi. Kamchilikning turiga qarab, iste'molchi turli xil variantlarga ega.”¹, deb ta'kidlaydi.

Ko'pgina iste'molchilar tovarni sotib olgandan so'ng ko'p o'tmay sotuvchiga to'liq qaytarib berish uchun qonuniy huquqqa ega deb hisoblashadi. Umuman olganda, bu taxmin to'g'ri emas. Biroq, bu qoidadan ba'zi muhim istisnolar mavjud. Bundan tashqari, iste'molchilar ko'pincha muhim kafolat huquqlariga ega va ba'zi sharoitlarda nuqsonli tovarlarni "rad etishi" yoki "qabul qilishni bekor qilishi" mumkin.² AQShning shtatlari qonunchiligida, jumladan, Yagona Tijorat Kodeksida (UCC) tovarlarni "qabul qilish", "rad etish" va "qabul qilishni bekor qilish"ni tartibga soluvchi biroz murakkab qoidalar to'plami mavjud. Bu huquqlar ko'pincha amalga oshirilgan har qanday to'lovlarni qoplash huquqini o'z ichiga oladi, natijada iste'molchiga "to'lovni qaytarish" kabi ko'rinadigan vosita paydo bo'ladi. Biroq, faktlardagi ozgina o'zgarishlar UCC bo'yicha natijani butunlay o'zgartirishi mumkinligini unutmang.

Iste'molchi xavfsizligini ta'minlamaydigan, iste'molchilarning hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga zarar etkazishi mumkin bo'lgan tovarlar, garchi bunday tovarlar amaldagi texnik standartlar yoki me'yorlarga muvofiq ishlab chiqarilgan bo'lsa ham, nuqsonli tovarlar deyiladi.³ Vetnam davlatida nuqsonli tovarlar “Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida”gi 2010 yilgi qonuniga muvofiq huquqiy tartibga solinadi. Jumladan ushbu qonunda nuqsonli tovarlar deganda quyidagilar tushuniladi:

- muhandislik dizaynidan kelib chiqadigan nuqsonlari bo'lgan ommaviy ishlab chiqarilgan tovarlar;
- ishlab chiqarish, qayta ishlash, tashish va saqlashda nuqsonlari bo'lgan yagona tovarlar;

¹ <https://destralegal.ru/blog/vsio-chto-vam-nuzhno-znat-kak-potriebiteliu/viernut-tovar-s-brakom-po-zakonu-o-zashchitie-prav-potriebitelielie/>

² <https://www.doj.nh.gov/consumer/sourcebook/defective-goods.htm>

³ <https://lawnet.vn/thong-tin-phap-luat/en/tu-van-luat/what-are-defective-goods-04-things-you-know-about-defective-goods-in-vietnam-113720.html>



- foydalanish paytida xavfsizligini buzishi mumkin bo'lgan, ammo tegishli ko'rsatmalarga ega bo'lmagan, iste'molchilarga ogohlantirish berilgan tovarlar.⁴

Angliya qonunchiligiga muvofiq, agar siz sotib olgan mahsulot quyidagilar bo'lsa, siz qonuniy huquqlarga ega bo'lasiz:

- singan yoki shikastlangan - bu qoniqarli sifatga ega emas
- yaroqsiz - bu maqsadga muvofiq emas deb nomlanadi
- reklama qilingan narsa emas yoki sotuvchi tavsifiga mos kelmaydi

Quyidagi hollarda siz hech qanday qonuniy huquqlarga ega bo'lmaysiz:

- u eskirish, baxtsiz hodisa yoki noto'g'ri foydalanish natijasida shikastlangan
- Siz buyumni sotib olishdan oldin xato haqida bilgansiz.⁵

AQShning Nyu-Xempshir shtati qonuniga ko'ra, sizning tovarni qaytarish huquqingiz odatda qonun, shartnoma yoki do'kon siyosati bilan belgilangan bo'ladi. AQShda nuqsonli tovarlarning huquqiy oqibatlari bilan birinchi navbatda iste'molchilar huquqlarini himoya qilish va monopoliyaga qarshi byuro qiziqadi.

Janubiy Afrikalik olim Megan Melkning fikricha, Garchi ko'pchilik iste'molchilar iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risida qonunchilik mavjudligidan xabardor bo'lsa-da, ko'pchilik nuqsonli yoki xavfli tovarlarni qaytarish bilan bog'liq haqiqiy huquqlar va etkazib beruvchidan nima talab qilishi mumkinligi bilan tanish emas. Uning ta'kidlashicha, agar tovarlar qonunda ko'rsatilgan talablar va standartlarga javob bermasa, iste'molchiga jarima solmasdan va etkazib beruvchining o'z tavakkalchiligi va hisobidan tovarlarni etkazib beruvchiga qaytarishi mumkin.⁶

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, nuqsonli tovarlar bilan bog'liq huquqiy oqibatlarni bartaraf etish faqat qonun hujjatlari orqali emas, turli shartnomalar, kompaniyalarning ustavi kabi bir qancha turdagi kelishuvlar va me'yoriy hujjatlar

⁴ <https://lawnet.vn/thong-tin-phap-luat/en/tu-van-luat/what-are-defective-goods-04-things-you-know-about-defective-goods-in-vietnam-113720.html>

⁵ <https://www.citizensadvice.org.uk/consumer/somethings-gone-wrong-with-a-purchase/return-faulty-goods/>

⁶ <https://www.dmlaw.co.za/what-are-your-rights-when-you-receive-defective-or-unsafe-goods-under-the-consumer-protection-act/>



bilan tartibga solinib kelinadi. Va, bu holat dunyo mamlakatlariga ham xos xususiyat hisoblanadi. Chunki, tadbirkorlik sub'ektlari yoki iste'molchilar ba'zida qonundan tashqarida, ammo qonun ta'qiqlab qo'ymagan munosabatlarga kirishadi, shaxslararo kelishuvlarni tuzadi.

Bu borada mamlakatimiz qonunchiligida ham bir qator qoidalar belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunining 1-moddasida⁷ belgilanishicha, tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni deyilganda tovar (ish, xizmat)ning normativ hujjatlarning majburiy talablariga, shartnoma shartlariga yoxud tovar (ish, xizmat)ning sifatiga odatda qo'yiladigan talablarga nomuvofiqligi tushuniladi. Tovar (ish, xizmat)ning jiddiy nuqsoni deyilganda — tovar (ish, xizmat)dan belgilangan maqsadda foydalanib bo'lmaydigan qilib qo'yadigan yoxud bartaraf etish uchun ko'p mehnat va vaqt sarflash talab qiladigan kamchilik deb, e'tirof etiladi.

Iste'molchiga nuqsonli tovar topshirilganda bir qator huquqlarga ega bo'ladi:

1. Tovarni ayni shunday markali (modelli, artikulli) maqbul sifatli tovarga almashtirib olish;
2. Tovarni boshqa markali (modelli, artikulli) shunday tovarga almashtirib, uning xarid narxini tegishlicha qayta hisob-kitob qilish;
3. Tovarning nuqsonlarini bepul bartaraf etish yoki iste'molchining yoxud uchinchi shaxsning nuqsonlarni bartaraf etishga qilgan xarajatlarini qoplash;
4. Xarid narxini nuqsonga mutanosib ravishda kamaytirish;
5. Shartnomani bekor qilib, ko'rilgan zararni qoplash.

Shu bilan bir qatorda nuqsonlar:

tovarning kafolat muddati yoxud yaroqlilik muddati mobaynida;

kafolat muddati va yaroqlilik muddati belgilanmagan tovarlar bo'yicha olti oy mobaynida;

⁷ O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 5-6-son, 59-modda), <https://lex.uz/acts/4704>



ko'chmas mulk iste'molchiga o'tkazilgan kundan e'tiboran ikki yil mobaynida, agar shartnomada bundan uzoqroq muddat nazarda tutilmagan bo'lsa;

mavsumiy tovarlar uchun O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilangan muddat mobaynida aniqlangan bo'lsa, iste'molchi mazkur huquqlarini ro'yobga chiqarishi mumkin.⁸

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 401-moddasida sotuvchining tovar assortimenti to'g'risidagi shartini buzish oqibatlarini mustahkamlangan bo'lib, unga muvofiq, sotuvchi oldi-sotdi shartnomasida nazarda tutilgan tovarlarni shartnomaga mos kelmaydigan assortimentda topshirgan taqdirda sotib oluvchi ularni qabul qilishdan va haqini to'lashdan bosh tortishga, bordi-yu ularning haqi to'lab qo'yilgan bo'lsa, to'langan pul summasini qaytarib berishni talab qilishga haqli.

Agar sotuvchi sotib oluvchiga assortimenti oldi-sotdi shartnomasiga mos keladigan tovarlar bilan bir qatorda assortiment to'g'risidagi shartlarga mos kelmaydigan tovarlar ham topshirgan bo'lsa, sotib oluvchi o'z ixtiyoriga ko'ra:

shartnomaning assortiment to'g'risidagi shartlariga mos bo'lgan tovarlarni qabul qilish va qolgan tovarlarni qabul qilishdan bosh tortish;

topshirilgan barcha tovarlarni qabul qilishdan bosh tortish;

shartnomaning assortiment to'g'risidagi shartlariga mos bo'lmagan tovarlarni shartnomada nazarda tutilgan assortimentdagi tovarlarga almashtirib berishni talab qilish;

topshirilgan barcha tovarlarni qabul qilish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 409-moddasida tovarning sotuvchi javobgar bo'ladigan kamchiliklar ko'rsatilib, unga ko'ra, agar sotib oluvchi tovardagi kamchiliklar tovar sotib oluvchiga topshirilgunga qadar paydo bo'lganligini yoki shu paytgacha vujudga kelgan sabablar tufayli paydo

⁸ O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 5-6-son, 59-modda), <https://lex.uz/acts/4704>



bo‘lganligini isbot qilib bersa, sotuvchi tovarning kamchiliklari uchun javobgar bo‘ladi.

Agar sotuvchi sifatiga o‘zi kafolat bergan tovardagi kamchiliklar uni sotib oluvchiga topshirgandan so‘ng sotib oluvchi tovardan foydalanish yoki uni saqlash qoidalarini buzganligi yoki uchinchi shaxslar harakati tufayli yoki oldini olib bo‘lmaydigan kuch ta‘sirida paydo bo‘lganini isbotlay olmasa, sotuvchi bu tovarning kamchiliklari uchun javobgar bo‘ladi.⁹, deb mustahkamlangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksida topshirilgan tovarning kamchiliklarini aniqlash muddatlari ham alohida mustahkamlangan. Jumladan, kodeksning 410-moddasida “Tovarning kafolat muddati yoki yaroqlilik muddati belgilanmagan hollarda, kamchiliklar bilan bog‘liq talablar sotib oluvchi tomonidan, agar qonunda yoki oldi-sotdi shartnomasida boshqa muddatlar belgilangan bo‘lmasa, kamchiliklar oqilona muddatda, biroq tovar sotib oluvchiga topshirilgan kundan boshlab ikki yil davomida aniqlangandagina qo‘yilishi mumkin. Tashib berilishi yoki aloqa tashkiloti orqali jo‘natilishi lozim bo‘lgan tovarning kamchiliklarini aniqlash muddati tovar belgilangan joyda olingan kundan boshlab hisoblanadi.”¹⁰ deb belgilangan.

Muayyan tovarga kafolat muddati belgilangan bo‘lsa, tovarning kamchiliklari kafolat muddatida aniqlanganida sotib oluvchi tovarning kamchiliklari bilan bog‘liq talablarni qo‘yishga haqli bo‘ladi.

Shuningdek, oldi-sotdi shartnomasida butlovchi buyumga asosiy buyumga nisbatan kamroq kafolat muddati belgilangan bo‘lsa, sotib oluvchi asosiy buyumning kafolat muddatida butlovchi buyumning kamchiliklarini aniqlasa, bu kamchiliklar to‘g‘risida talab qo‘yishga haqli hisoblanadi.

Shu o‘rinda aytish mumkinki, ba’zida sotuvchi tomonidan but bo‘lmagan tovarlar iste’molchiga topshirilish holatlari ro‘y beradi. But bo‘lmagan tovarlar

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, <https://lex.uz/docs/180552#182599>

¹⁰ O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, <https://lex.uz/docs/180552#182599>



ham ayni vaqtda nuqsonli hisoblanadi. Bunday tovarlarning ko'p hollarda ma'lum bir ehtiyot qismlarini yoki mansub ashyolarini topshirmaslik natijasida iste'molchi ushbu tovardan kuzlangan maqsadda foydalana olmaydi. Shu sababli bunday tovarlarni iste'molchiga yetkazib berish ham muayyan huquqiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 413-moddasida nazarda tutilgan oqibatlar yuz beradi.

But bo'lmagan tovar topshirilgan taqdirda, sotib oluvchi o'z ixtiyoriga ko'ra sotuvchidan:

xarid narxini mutanosib ravishda kamaytirishni;

tovarni oqilona muddatda butlashni talab qilish huquqiga ega.

Agar sotuvchi oqilona muddatda sotib oluvchining tovarni butlash to'g'risidagi talabini bajarmasa, sotib oluvchi o'z ixtiyoriga ko'ra:

butlanmagan tovarni but tovarga almashtirishni talab qilishga;

oldi-sotdi shartnomasini bajarishdan bosh tortishga va tovar uchun to'langan pul summasini qaytarib berishni, shuningdek yetkazilgan zararni qoplashni talab qilishga haqli.¹¹

Shuningdek, but bo'lmagan tovarni sotish oqibatlari butun tovarning huquqiy holatiga bevosita ta'sir qilishi qonunchiligimizda belgilangan. O'zbekiston Respublikasining Iste'molchilar huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonunining 13-moddasida iste'molchi o'ziga sotilgan to'plamlar, garniturlar, komplektlar va komplekslarning mustaqil tarkibiy qismi bo'lgan va mustaqil narxga ega bo'lgan buyumlarda nuqsonlar borligini aniqlagan taqdirda, butun to'plam, garnitur, komplekt va kompleksga nisbatan ham, ularning nuqsonlari bor mustaqil tarkibiy qismlariga nisbatan ham ushbu moddaning [birinchi qismida](#) nazarda tutilgan talablarni qo'yishga haqlidir.¹²

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, 413-modda, <https://lex.uz/docs/180552#182599>

¹² O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 5-6-son, 59-modda), <https://lex.uz/acts/4704>



Qonunchilik nuqsonli tovarlarni almashtirish, qaytarib berish, bahosini pasaytirish kabi huquqiy oqibatlar bilan bir qatorda almashtirib bo'lmaydigan holatlarni ham nazarda tutadi. Maqbul sifatdagi almashtirilishi uchun ushbu tovar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 75-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalari"¹³ning 1-ilovasida ko'rsatilgan "Zarur sifatdagi, qaytarib olinmaydigan yoki shunga o'xshash tovarga almashtirilmaydigan nooziq-ovqat tovarlari ro'yxati"ga kiritilmagan bo'lishi talab etiladi. Agar tovar ushbu ro'yxatda bo'lsa, faqatgina mahsulotda nuqson bo'lgan holatdagina uni almashtirib olish yoki pulini qaytarib olish mumkin.

Yana bir holat, tovar yuqoridagi ro'yxatga kiritilgan bo'lsa-yu, agar oldi-sotdi jarayonida iste'molchi va sotuvchi o'rtasida tovarni almashtirib berilishi to'g'risida kelishuv (og'zaki yoki boshqa shakldagi shartnoma) bo'lgan taqdirda ham uni almashtirib olish yoki pulini qaytarib olish mumkin bo'ladi. Bunday tovarlarga texnik buyumlar, mebellar, pardozi buyumlari, mahsulotlarni termik qayta ishlash va ovqat tayyorlashda yoki tibbiy maqsadlar sifatida foydalaniladigan maishiy texnikalar kiradi.

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonunining 13-moddasi beshinchi qismida iste'molchining nuqsonli tovar bilan bog'liq nizolarini ko'rib chiqilishida iste'molchi talablari tovar chekini, kafolat muddati belgilangan tovarlar bo'yicha esa, tegishli rasmilashtirilgan texnik pasport yoki uning o'rnini bosuvchi boshqa hujjatni taqdim etgan holatdagina ko'rib chiqilishi bo'yicha norma belgilangan, lekin maqbul sifatdagi tovarni almashtirish bilan bog'liq holatlarni tartibga soluvchi 18-moddasida esa bunday norma ko'rsatib o'tilmagan. Biroq "O'zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalari"ning 22-bandida "ushbu

¹³ O'zbekiston Respublikasida chakana savdo QOIDALARI. Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13 fevraldagi 75-son qaroriga 1-ILOVA. <https://lex.uz/docs/-243235>



sotuvchidan sotib olinganining isboti mavjud bo‘lishi” degan shart qo‘yilmoqda. Isbot esa albatta, qandaydir hujjat bilan bog‘liq tushunchadir. Amaldagi qonunning 10-moddasiga ko‘ra, oldi-sotdi amalga oshirilgach, iste‘molchiga tovar cheki taqdim qilinishi shart.

“O‘zbekiston Respublikasida chakana savdo qoidalari”ning 22-bandiga ko‘ra, chakana savdoni nazorat-kassa mashinasini qo‘llamasdan amalga oshirayotgan sotuvchi — yakka tartibdagi tadbirkor xaridorga sotib olingan tovar bilan birgalikda sotuvchining familiyasi va imzosi, yakka tartibdagi tadbirkorning (yuridik shaxs bo‘lmagan dehqon xo‘jaligining) davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi guvohnomaning tartib raqami, tovar sotilgan sana va uning qiymati ko‘rsatilgan holda kvitansiya yoki shunga o‘xshash hujjatni berishi shart. Shuning uchun oldi-sotdi amalga oshirilishi jarayonida, sotuvchidan tovar cheki berilishini talab qilishimiz, hech bo‘lmaganda qoidalarning 22-bandida ko‘rsatib o‘tilganidek, kvitansiya yoki shunga o‘xshash hujjat yozdirib olishimiz lozim.

Agar sotuvchi qonuniy talabingizga ko‘ra, tovar chekini yoxud uning o‘rnini bosuvchi hujjatni Sizga taqdim qilishdan bosh tortsa, yaxshisi bunday sotuvchilardan tovarlar (ayniqsa uzoqroq muddat foydalaniladigan tovarlarni) sotib olmagan ma’qul. Shuning bilan birgalikda, mazkur holat yuzasidan joyida soliq idoralariga xabar berilishi maqsadga muvofiqdir.

Shu o‘rinda biz tadqiq etilayotgan masalaning huquqiy asoslari haqida fikr yuritish bilan bir qatorda iste‘molchilarning iste‘mol madaniyati yoki huquqiy madaniyati darajasining nuqsonli tovarlar bilan bog‘liq huquqiy oqibatlarini bartaraf etishga ta’siri haqida ham fikr bildirishni maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Chunki, zamonaviy bozor talablari iste‘molchida juda yuqori darajadagi tanlov imkoniyatlarini yaratib beradi. Ushbu holat bir tomondan iste‘molchining tovarlarni tanlash va sotib olish imkoniyatlarini oshirishsa, ikkinchi tomondan, taklifning ko‘pligi iste‘molchini chalg‘itishga olib kelishi ham mumkin. Masalaning yana bir jihati, iste‘molchi o‘z huquqlarini qaysi usul va vositalar orqali himoya qilish



mumkinligini bilmasligi, kimga va qaysi muddatlarda murojaat qilishi haqida ma'lumotga ega emasligi yoki tovarni sotib olganda to'g'ridan-to'g'ri sotuvchiga qonuniy talablarni qo'ya olmasligi asosiy muammolar hisoblanadi.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagilarga asoslanib tadqiq etilgan masala bo'yicha quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Tovarlarni sotuvchilar oldi-sotdi shartnomalari yoki mahsulot yetkazib berish shartnomalaridan tashqari eng avvalo, qonunchilikda belgilangan iste'molchilar huquqlariga rioya qilishi lozim. Bu mahsulot sifatiga qo'yiladigan umumiy talablar, uning xavfsizligi, yaroqliligi, butligi, qadoqlanganligi, yaroqlilik muddatiga va kafolat muddatiga amal qilinganligi, iste'molchiga yetkazilgunga qadar saqlash talablariga rioya etilganligi kabilarni o'z ichiga olishi kerak.

Nuqsonli tovarlarni sotish orqali yuzaga keladigan huquqiy oqibatlar va ularni bartaraf etish bo'yicha tovarlarni realizatsiya qiluvchilar madaniyatini oshirish, bunda huquqiy ong va madaniyatni oshirish usulidan tashqari huquqiy ta'sir choralarning muqarrarligi amalda ta'minlash maqsadga muvofiq.

Iste'molchilarning xaridor sifatida nuqsonli tovarlarni sotib olish oqibatlarini bartaraf etish bilan bog'liq huquqiy bilimlari yetarli emas. Iste'molchining tovarlarni maqbul shartlar asosida qabul qilishi, nuqsoni bo'lganda uni bartaraf etish tartibini tushunishi uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- Iste'molchilar uchun sodda, tushunarli, qiziqarli platformalarni yaratish. Har qanday shaxsning undan foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash;
- Tovarlarni ishlab chiqaruvchilar va realizatsiya qiluvchilar o'zlarining oferta shartlarini e'lon qilganda, iste'molchining huquqlarini to'la bayon qilishi lozim;
- Fuqarolarda iste'mol madaniyatini ta'lim muassasalarida o'qish paytidayoq shakllantiruvchi tizimni yaratish. Umumta'lim maktablarining yuqori sinflarida va oliy ta'limda iste'molchilar huquqlari kursi joriy etilishi maqsadga muvofiq.



Chunki, har bir inson qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar iste'molchi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksi, 413-modda, <https://lex.uz/docs/180552#182599>
2. O'zbekiston Respublikasining "Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni (O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 5-6-son, 59-modda), <https://lex.uz/acts/4704>
3. O'zbekiston Respublikasida chakana savdo QOIDALARI. Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13 [fevraldagi](#) 75-son qaroriga 1-ILOVA. <https://lex.uz/docs/-243235>
4. <https://www.dmlaw.co.za/what-are-your-rights-when-you-receive-defective-or-unsafe-goods-under-the-consumer-protection-act/>
5. <https://destralegal.ru/blog/vsio-cto-vam-nuzhno-znat-kak-potriebiteliu/viernut-tovar-s-brakom-po-zakonu-o-zashchitie-prav-potriebiteliu/>
6. <https://www.doj.nh.gov/consumer/sourcebook/defective-goods.htm>
7. <https://lawnet.vn/thong-tin-phap-luat/en/tu-van-luat/what-are-defective-goods-04-things-you-know-about-defective-goods-in-vietnam-113720.html>
8. <https://www.citizensadvice.org.uk/consumer/somethings-gone-wrong-with-a-purchase/return-faulty-goods/>